



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No3**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr.  
2026-yil, aprel.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeveva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor





## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                   |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....                                                           | 21 |
| Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich |    |
| YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY<br>YO'NALISHI .....                | 26 |
| Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi                                                        |    |
| RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI .....                                                    | 30 |
| Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich                                                    |    |



# RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI



**Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

**Rustamov Davron Rustamovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Iqtisodiyot fanlari doktori, Buxgalteriya hisobi fakulteti dekani

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli soliq nazorati mexanizmlarining buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida yuritilayotgan soliq nazorati hisob jarayonlarining shaffofligini oshiradi, ma'lumotlar ishonchligini ta'minlaydi va soliq risklarini kamaytiradi. Tadqiqot davomida raqamli soliq nazoratining ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlanib, buxgalteriya tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** raqamli soliq nazorati, buxgalteriya hisobi, avtomatlashtirish, elektron hisobot, soliq risklari, shaffoflik.

**Abstract:** This article analyzes the impact of digital tax control on the accounting system. The use of digital technologies in tax administration increases transparency of accounting processes, improves data reliability and reduces tax risks. The study identifies both positive and negative effects of digital tax control and develops scientific conclusions for improving accounting systems.

**Key words:** digital tax control, accounting, automation, electronic reporting, tax risks, transparency.

**Аннотация:** В статье анализируется влияние цифрового налогового контроля на систему бухгалтерского учета. Использование цифровых технологий в налоговом администрировании способствует повышению прозрачности учетных процессов, достоверности данных и снижению налоговых рисков. В ходе исследования выявлены положительные и отрицательные аспекты цифрового налогового контроля и разработаны научные выводы по совершенствованию бухгалтерской системы.

**Ключевые слова:** цифровой налоговый контроль, бухгалтерский учет, автоматизация, электронная отчетность, налоговые риски, прозрачность.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimini modernizatsiya qilish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi soliq nazoratining yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobi tizimining to'liq va aniq yuritilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur tadqiqotning obyekti – raqamli soliq nazorati tizimi, predmeti – uning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri, maqsadi – raqamli soliq nazoratining buxgalteriya hisobiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalariga raqamli soliq nazoratining mohiyatini ochib berish, buxgalteriya tizimidagi o'zgarishlarni tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlash kiradi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni jahon miqyosida muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, raqamli soliq nazoratining buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nuqtayi nazardan o'rganilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan Brown va Evans soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalarni qo'llash buxgalteriya axborotlarining shaffofligi va ishonchligini oshirishini ta'kidlaydilar [1]. Ularning fikricha, elektron hisob-fakturalar va avtomatlashtirilgan soliq hisobotlari buxgalteriya hisobini yuritish jarayonini soddalashtirib, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi. OECD hisobotida raqamli soliq nazorati soliqqa oid ma'lumotlarning real vaqt rejimida shakllanishiga imkon yaratib, buxgalteriya tizimining operativligini oshirishi qayd etilgan [2].

Schneider va Williams tadqiqotlarida raqamli nazorat mexanizmlari orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3]. Ular raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobida moliyaviy operatsiyalarni to'liq qayd etish zaruratini kuchaytirishini ta'kidlaydilar. Gupta va Jain esa raqamli platformalar asosida olib borilayotgan soliq nazorati buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishini ko'rsatib o'tgan [4].

MDH davlatlari olimlarining tadqiqotlarida raqamli soliq nazoratining korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tizimiga moslashuvi masalalari keng yoritilgan. Ivanov soliq organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi axborot almashinuvi elektron shaklga o'tkazilishi natijasida buxgalteriya axborot tizimlari transformatsiyaga uchrayotganini ta'kidlaydi [5]. Petrov esa raqamli soliq nazoratining joriy etilishi buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishini jadallashtirishini va hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirishini ko'rsatadi [6].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazoratining takomillashuvi hamda buxgalteriya tizimining rivojlanishi masalalari o'rganilgan. Tursunov raqamli texnologiyalar asosida olib boriladigan soliq nazorati buxgalteriya hisobida ma'lumotlarning aniqligi va shaffofligini oshirishini ta'kidlaydi [7]. Karimov soliq ma'murchiligini raqamlashtirish moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonini tezlashtirishini va soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslagan [8]. Ismoilova esa elektron hujjat aylanishi tizimining joriy etilishi buxgalteriya hisobida axborotlarni qayta ishlash xarajatlarini kamaytirishini ko'rsatib o'tgan [9].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda asosan raqamli soliq nazoratining soliq tushumlari va umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'siri yoritilgan bo'lib, uning bevosita buxgalteriya hisobi tizimiga ko'rsatadigan ta'siri yetarli darajada kompleks o'rganilmagan [1–4]. Aksariyat tadqiqotlar soliq organlari faoliyati nuqtayi nazaridan olib borilgan bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya tizimidagi o'zgarishlar kam yoritilgan [5–6].

Mazkur tadqiqotda esa raqamli soliq nazoratining buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri axborotlarning shakllanishi, qayta ishlanishi va moliyaviy hisobotlarning tuzilishi nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv mazkur ishning ilmiy yangiligi va o'ziga xosligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli soliq nazoratining buxgalteriya hisobi tizimiga ta'sirini o'rganishda ilmiy bilishning bir qator umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy xulosalash usullari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, iqtisodiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, soliq ma'murchiligini raqamlashtirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Ushbu manbalar asosida raqamli soliq nazoratining mazmuni, uning buxgalteriya hisobi tizimi bilan bog'liqligi nazariy jihatdan asoslab berildi.

Qiyosiy taqqoslash usuli orqali an'anaviy soliq nazorati tizimi bilan raqamli soliq nazorati tizimi o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Xususan, soliq hisobotlarini tayyorlash, moliyaviy operatsiyalarni qayd etish va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari ikki tizimda qanday tashkil etilgani o'zaro taqqoslandi. Ushbu usuldan foydalanish natijasida raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobi tizimida axborotlarning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tizimli yondashuv usuli asosida raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobi tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi. Bunda soliq organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar va axborot tizimlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Mazkur yondashuv raqamli soliq nazoratining buxgalteriya tizimiga kompleks ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tahlil usuli orqali raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida buxgalteriya hisobida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, jumladan, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan hisob-kitob jarayonlari hamda moliyaviy hisobotlarni shakllantirishdagi transformatsiya jarayonlari o'rganildi. Olingan natijalar umumlashtirish usuli yordamida xulosa qilib chiqildi.





## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishini jadallashtirdi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn kassa mashinalari va elektron soliq hisobotlari buxgalteriya ma'lumotlarining aniqligi va tezkorligini oshirdi. Natijada, soliq organlari va korxonalar o'rtasidagi axborot almashuvi soddalashti.

Tadqiqotda 2019–2024-yillar oralig'ida xo'jalik yurituvchi subyektlarda soliq hisobotlarini yuritish jarayonida yuz bergan o'zgarishlar o'rganildi. Raqamli soliq nazoratini joriy etishdan oldingi va keyingi holat qiyosiy taqqoslash usuli asosida tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Raqamli soliq nazorati joriy etilishidan oldin va keyin buxgalteriya jarayonlaridagi o'zgarishlar<sup>1</sup>

| Ko'rsatkichlar                           | An'anaviy tizim (2019) | Raqamli tizim (2024) |
|------------------------------------------|------------------------|----------------------|
| Hisobot topshirish muddati (kun)         | 10-12                  | 1-2                  |
| Hisob-kitobdagi xatoliklar (%)           | 15-18                  | 3-5                  |
| Ma'lumotlarni qayta ishlash vaqti (soat) | 6-8                    | 1-2                  |
| Shaffoflik darajasi                      | past                   | yuqori               |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli soliq nazorati joriy etilgandan so'ng buxgalteriya hisobi jarayonlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. Xususan, soliq hisobotlarini tayyorlash va topshirish muddati qisqargan, buxgalteriya hisobida yo'l qo'yiladigan xatoliklar darajasi kamaygan.

Shuningdek, elektron hisob-fakturalar va onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali ma'lumotlarning real vaqt rejimida soliq organlariga uzatilishi natijasida buxgalteriya va soliq hisobi o'rtasidagi tafovutlar qisqargan. Natijada korxonalarda hisob yuritish jarayoni avtomatlashtirilgan shaklga o'tmoqda.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobi tizimiga quyidagi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatmoqda:

- Hisob-kitob jarayonlari tezlashmoqda.
- Moliyaviy ma'lumotlarning aniqligi oshmoqda.
- Soliq intizomi mustahkamlanmoqda.
- Yashirin iqtisodiyot ulushi qisqarishiga sharoit yaratilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun buxgalterlar malakasini oshirish, axborot tizimlarini integratsiyalash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobi tizimining shaffofligi va ishonchligini oshiradi hamda soliq risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tizimni samarali joriy etish uchun buxgalterlarning raqamli malakasini oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va kichik biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish zarur.

O'rganilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Raqamli soliq nazorati joriy etilgandan so'ng buxgalteriya hisobida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Hisobotlarni tayyorlash muddati qisqargan, hisob-kitobdagi xatoliklar darajasi kamaygan va ma'lumotlar shaffofligi oshgan [11].

2. Elektron hisob-fakturalar va onlayn nazorat-kassa mashinalari yordamida ma'lumotlarning real vaqt rejimida soliq organlariga uzatilishi buxgalteriya va soliq hisobi o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirdi [11].

3. Raqamli soliq nazorati buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon berib, moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchligini oshirdi.

Tavsiyalar:

1. Buxgalterlar malakasini oshirish – korxonalarda raqamli tizimlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida trening va kurslar tashkil etish.

2. Axborot tizimlarini integratsiyalash – turli dasturiy ta'minotlar va platformalarni birlashtirish orqali hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirish.

1 Manba: muallif ishlanmasi





3. Infratuzilmani rivojlantirish – internet tarmoqlarining barqarorligi va raqamli texnologiyalar uchun moddiy-texnik bazani yaxshilash [12].

4. Kichik korxonalarga qo'llab-quvvatlash – raqamli soliq nazoratini joriy etish uchun moliyaviy va texnik yordam ko'rsatish.

5. Avtomatlashtirilgan tizimlarni kengaytirish – elektron hisob-faktura va onlayn nazorat-kassa mashinalarini joriy etish orqali ma'lumotlarning aniqligi va tezkorligini oshirish.

Ushbu tavsiyalar amalga oshirilganda raqamli soliq nazorati buxgalteriya hisobi tizimining samaradorligini oshiradi, soliq intizomining mustahkamlanishiga xizmat qiladi va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown J., Evans R. Digital Tax Administration and Accounting Transparency. – London: Routledge, 2020.
2. OECD. Tax Administration 2021: Digital Transformation of Tax Administration. – Paris: OECD Publishing, 2021.
3. Schneider F., Williams C. The Shadow Economy. – London: Institute of Economic Affairs, 2019.
4. Gupta S., Jain P. Digitalization of Tax Control and Accounting Systems. – Journal of Accounting Research, 2022, №4.
5. Ivanov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq nazorati. – Moskva: Finansy i statistika, 2020.
6. Petrov V. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish va buxgalteriya hisobi. – Moskva: Ekonomika, 2021.
7. Tursunov B. Raqamli iqtisodiyot va soliq tizimini takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. Karimov A. Soliq ma'murchiligining raqamli transformatsiyasi. – Toshkent: Moliya, 2021.
9. Ismoilova D. Elektron hujjat aylanishi va buxgalteriya hisobi. – Toshkent: Fan, 2022.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish bo'yicha hisobot. – Toshkent, 2023.
11. Brown J., Evans R. Digital Tax Administration and Accounting Transparency. – London: Routledge, 2020.
12. OECD. Tax Administration 2021: Digital Transformation of Tax Administration. – Paris: OECD Publishing, 2021.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---